



QANDLI DIABET KASALLIGIDA BEMORLARNI ANKETA SO'ROVNOMASI YORDAMIDA ETIOLOGIK TAHLIL QILISH

**Boboqulov S., Abdurashidov X., Jalolov H,
Ahrorov B, Ahmadjonov V., Bekmurodova .M.S**

Samarkand davlat tibbiyot universiteti

Samarqand, Uzbekiston

Kirish. Qandli diabet insulinning mutlaq yoki nisbiy yetishmovchiligi bilan kechuvchi va moddalar almashinuvining buzilishi bilan kechuvchi surunkali kasallidir. Hozirgi kunda jahon miqyosida xususan O'zbekistonda bu kasalikning keng ko'lamda uchrashi dolzarbligini yanda oshiradi. Shu tufayli uning kelib chiqishini organib mukammal profilaktik ishlar olib borish zarurdir. Bizga malumki, qandli diabetning quyidagi turlar farqlanadi: Insulinga bog'liq; Insulinga bog'liq bo'lмаган; Simptomatik diabet; Homiladorlik diabeti; Ovqatlanish yetishmovchigi bilan bog'liq diabet

Tadqiqot maqsad. Qandli diabet bemorlarni so'rab surishtirish orqali bu kasalikning kelib chiqishini aniqlash va kerakli profilaktik choralar ishlab chiqish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqotda so'rab surishtirish metodidan foydalanildi. Tadqiqotda 43 nafar bemor (22yoshdan 65 yosh orasidagi erkak va ayollar) qatnashdi. Shularda 11tasi – 1-tip diabetga (insulinga bog'liq) chalingan, 32 tasi 2-tip diabetga chalingan. Barcha bemorlardan quyida so'rab surishtirish ishlari olib borildi: Yoshi nechada, bu kasallik bilan kasallanganlar avlodida bor yoki yo'qligi; Yondosh kasalliklari bor yoki yo'qligi'; Hayoti davomida qanday kasalliklar bilan og'riganligi (Infektion kasalik boshidan o'tkazganmi); Hayoti davomida ruhiy holati qandayligi; Bemorning o'zi kasallikni nima bilan bog'laydi

Tadqiqot natijalari. So'rab surishtirishlar asosida quyidagilar aniqlandi: 1-tip diabetga uchragan 11 bemorlar aksariyatini 40 yoshgacha bo'lgan bemorlar tashkil etdi. Ularning 9tasining vazni meyordan kam.

11dan 7tasi turli virusli infeksiyalar bilan og'rigan va hayotida stressli holatlar kechgan. 11dan 3tasida ovqat ratsionida uglevod va yog'lar ko'p, oqsillar kam bo'lgan. Faqat 1ta bemorda pankreatit kasaligini utkazganligi aniqlandi.

2-tip diabetik bemorlarni so'rabsurishtirishtirganda barchasining vazni meyordan baland bo'lib chiqdi. 32 nafar bemordan 27 tasining avlodida bu kasallikga uchraganlar bor. 2ta bemor anamnezida giperterioz bor ekan. 6 nafar bemor to'satdan kelgan kuchli stresdan song bu kasallikka yo'liqqan.

Bemorlarni 70 foizni qarialar tashkil etdi. 10ta bemor hayoti davomida alkogol mahsulotlar istemol qilib kelgan. Barcha bemorlar kam harakat hayot tarzi kechirishgan.

Xulosa. So'rab surishtirishlardan malum bo'ldiki qandli diabetni etiologiyasiga quyidagilar kirar ekan (Samarqand viloyati aholisi asosida): Irsiy moyillik; Kam harakat hayot tarsi; Alkogol istemol qilish, ovqat ratsionida uglevod va yog' ko'p, oqsil kam bo'lishi; Yoshning borgan sari oshib borishi ham xavfni oshirar ekan; Kuchli stress; Endokrin kasalliklar; Ortiqcha vazn; Virusli infeksiyalar; Vazn meyordan kamligi (faqat 1-tip qandli diabet)

Shularni bilgan holda aholi orasida faol turmush tarzini, sport turlarini, piyoda yurishni, sog'lom ratsionar ovqatlanishni, alkogol istemol qilmaslikni, vaznlarini muntazam meyorda saqlashliklarini, har qanday kasallikdan o'z vaqtida to'liq davolashnishlarni targ'ib etish joizdir.

Qariyalarga stess kuchli tasir etishi hisobga olgan holda ulat o'ta mehribonlik va shirinsuxanlik bilan mumolada bo'lish har bir davolash metodining ustuvor jihatidir.